

**Raqamli texnologiyalar sohasida 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar
va erishilgan natijalar tahlili bo'yicha
MA'LUMOTNOMA**

I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Aloqa, axborotlashtirish va raqamli texnologiyalar sohasining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari:

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida 56,2 trln. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,8 foizni** tashkil etdi.

IT va BPO xizmatlari eksporti hajmini oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2024 yil yakuniga qadar IT-Parkning **2600 ta** rezidentlari tomonidan ish bilan ta'minlanganlar soni **38 ming nafarga** yetkazildi, jumladan 2024 yilda **12 ming nafar** aholi ish bilan ta'minlandi.

Raqamli industriyani rivojlantirish, mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun qulay sharoitlar yaratish:

2024 yilda IT-Park rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni **2600 taga** yetkazildi. Shundan **625 tasi (o'sish 146 foiz, 2023 yil 426 ta)** IT-Park rezidenti bo'lgan xorijiy IT-kompaniyalar (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlar) hisoblanadi.

Yagona darcha (**one stop shop**) tamoyili asosida **2024 yilda 115 ta (o'sish 205 foiz 2023 yil 56 ta)** kompaniyalar tomonidan yuridik shaxs tashkil etish bo'yicha arizalar kelib tushgan, jumladan, Rossiya Federatsiyasi - **26 ta**, Gruziya - **9 ta**, Yaponiya - **9 ta**, AQSh - **7 ta**, Belarus - **7 ta**.

IT-Park rezidentlariga IT-Park Direksiyasida yuridik shaxsning pochta (yuridik) manzili sifatida e'tirof etiladigan "**Virtual ofis**" berish tartibini joriy qilindi;

Hozirgi kunga qadar **82 ta (o'sish 186,4 foiz, 2023 yil 44 ta)** IT-Park rezidenti bilan "**Virtual ofis**" xizmatidan foydalanib kelmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritadigan chet ellik mutaxassislar, investorlar, IT-Park rezidentlarining ta'sischilari hamda ularning oila azolari uchun uch yilgacha bo'lgan muddatga amal qiladigan "**IT-viza**" berish joriy etildi.

2025 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvarga qadar tajriba-sinov tariqasida IT-Park rezidentlariga quyidagi barcha shartlar bajarilgan hollarda korporativ bank kartalari orqali reklama xizmatlari uchun kalendar yil davomida eksport tushumlarining **10 foizi**

doirasida, biroq **100 ming** AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

Startaplarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, **2024 yil** davomida **5 ta** inkubatsiya va akseleratsiya dasturi tashkil etilib, ularda **75 ta** startap loyihalari qamrab olindi. Mazkur dastur doirasida moliyaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt, sog'liqni saqlash, ijtimoiy soha va ta'lim sohalaridagi startaplar xalqaro bozorga chiqishga tayyorlanmoqda.

Shuningdek, **2024 yil** davomida **38 ta** startap **69,5 million dollar** miqdorida venchur moliyalashtirishni jalb qildi. Ushbu investitsiyalarning **48 foizi** ixtisoslashgan xorijiy fondlardan kelgan.

Ushbu davrda startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **49 nafar** tadbir o'tkazilgan.

2024 yil dekabrga qadar startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida **10 million dollar** miqdorida sarmoyaga ega bo'lgan "IT Park Ventures" jamg'armasi tashkil etildi.

Bundan tashqari, **2024 yilning 20 avgustda** bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqoti doirasida startap loyihalar va venchur kapitalni rivojlantirish hamda xorijiy venchur investitsiyalarni mamlakatga jalb etish bo'yicha bergan topshiriqlari natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" **2024 yil 14 oktyabrdagi PQ-357-sonli qarori** imzolandi.

Shuningdek, startaplarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, **2024 yil 1-7 dekabrda** "Digital Startup Week" dasturi doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi.

Mazkur dastur doirasida "**startupbase.uz**" nomli maxsus axborot tizimining yangilangan ko'rinishi ishga tushirilib, unga startaplar ro'yxatdan o'tishni boshladi.

Haftalik davomida "**President Tech Award**" tanlovining final bosqichi bo'lib o'tdi, **2024 yilda** mazkur tanlov startaplar uchun eng muhim tashabbuslardan biri sifatida yanada keng qamrovli va innovatsion formatda tashkil etildi.

Tanlov doirasida ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish, tanlov shartlari va muddatlari, hamda tanlovga oid barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "**awards.gov.uz**" maxsus portali ishga tushirildi. Mazkur portal orqali **3,400 dan ortiq** yoshlardan arizalar qabul qilinib, ular asosida **538 ta** jamoa shakllantirildi. Tanlov quyidagi asosiy texnologik yo'nalishlarni qamrab oldi:

Sun'iy intellekt texnologiyalari – **63 ta** jamoa,

Ijtimoiy raqamli texnologiyalar – **173 ta** jamoa,

Micro-SaaS va reklama texnologiyalari – **31 ta** jamoa,

Tadbirkorlik va moliyaviy texnologiyalar – 92 ta jamoa,

Kompyuter va mobil o‘yinlar – 41 ta jamoa.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024 yil 1 fevraldagi PF–25-son Farmoniga** muvofiq IT-Park hududida raqamli texnologiyalar sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lgan maxsus hudud sifatida **Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini** tashkil etish yuzasidan Vazirlik tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **““Enterprise Uzbekistan” raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi** ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishildi hamda **2024 yil 5 dekabrda** Adliya vazirligining huquqiy ekspertizasidan o‘tkazilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi” to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralar bilan kelishildi.

Telekommunikatsiya va raqamli infratuzilmani rivojlantirish:

Xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish maqsadida, Xalqaro Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati **16,6 foizga** oshirilib, **4 200 Gbit/s.ga (2023 yil 3600 Gbit/s.)** yetkazildi.

Shuningdek, **2024 yilda** qo‘shimcha **56,9 ming km. (o‘shish 113,8 foiz, 2023 yil 50 ming km.)** optik-tolali aloqa liniyalarini qurish orqali ularning umumiy uzunligi **293,1 ming km.ga (o‘shish 124,2 foiz, 2023 yil 236 ming km.)** yetkazildi.

2024 yil yakunida **452 mingta** uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik sub‘ektlari va ijtimoiy soha ob‘ektlarining keng polosali Internetga ulanish imkoniyati yaratildi jami portlar soni **5.9 mln.taga (o‘shish 107,2 foiz, 2023 yil 5.5 mln.ta)** yetkazildi.

Shuningdek, **24 620 ta** qo‘shimcha tayanch stansiyalari o‘rnatilib ularning umumiy soni **85,2 mintaga (o‘shish 140 foiz, 2023 yil 60,6 mingta)** yetkaziladi, respublika bo‘yicha mobil aloqa va mobil internet qamrovi darajasi **99 foizga yetkazildi.**

O‘zbekiston eng zamonaviy texnologiyalarni, jumladan **5G** ni joriy etishga katta e‘tibor qaratmoqda. Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib **5G** ni sinovdan o‘tkazgan va tijoriy ekspluatatsiyaga kiritgan mamlakatlardan biri sifatida o‘z telekommunikatsiya infratuzilmasini va aloqa sifatini jadal yaxshilamoqda. 2024 yilda **5G** tarmog‘i respublikamizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyat markazlarida ishga tushirildi. Shuningdek,

2024 yilda o‘tkazilgan **"ICT Week Uzbekistan-2024"** doirasida test qilingan

5.5G texnologiyasi mamlakatning so'nggi texnologik yutuqlarni faol integratsiya qilishga tayyorligini namoyon etdi.

2020 yildan buyon O'zbekistonda internet tezligi sezilarli darajada oshdi: mobil internetning o'rtacha tezligi qariyb olti barobarga ko'tarilib, **38.96 Mbit/s** ga yetdi, simli internet tezligi esa **72.99 Mbit/s** ni tashkil etdi. Bu O'zbekistonga jahon reytingida Speedtest Global Index bo'yicha mobil internet tezligida **133-o'rindan 68-o'ringa**, simli internet tezligida esa **122-o'rindan 74-o'ringa** ko'tarilish imkonini berdi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar:

Sun'iy intellektni qo'llagan holda **davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda biometrik identifikatsiyalash uchun "My ID" tizimi** ishlab chiqildi va ishga tushirildi.

Bugungi kunda, **"My ID"** tizimi **29 ta** bank (*umumiy banklarning 82 foizi*), **5 ta** davlat tashkilotlari, **16 ta** to'lov tizimlari, **9 ta** marketpleys, **6 ta** mobil operatorlar, **40 dan ortiq boshqa sohadagi korxonalar**, jami **100 dan ortiq** tashkilotlarda o'rnatilib, **11 mln.dan ortiq** foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazildi;

Shuningdek, sun'iy intellektni **tarmoqlarda amaliy qo'llash** bo'yicha:

"MyID Palm" odamning kaftini identifikatsiyalash asosida elektron to'lov texnologiyasi yaratilib, hozirgi kunda sinovlar muvaffaqiyatli o'tkazildi va Toshkent shahridagi **10 ta metro bekatida** sinovdan o'tkazish rejalashtirilmoqda;

"UzFace" tizimi ichki ishlar organlari uchun yaratilgan bo'lib **jamoat joylarida aholini shaxsini aniqlash maqsadida tajriba – sinov tariqasida ishga tushirildi.**

2024/2025 o'quv yili uchun "Sun'iy intellekt" yo'nalishida kadrlar tayyorlash bo'yicha jami **13 ta** oliy ta'lim muassasalarida **1050 ta** (**1018 ta bakalavr, 32 ta magistratura**) kvotalar ajratildi;

Shuningdek, **"IT ta'lim berish markazi USTUDY" MChJ** tomonidan vazirlik va idoralarning raqamlashtirishga mas'ul xodimlari hamda boshqa talabgorlarni sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha malakasini oshirish bo'yicha kurslar yo'lga qo'yildi.

Jumladan, **7 nafar Vazirlar Mahkamasi xodimlari, 18 nafardan Davlat hizmatini rivojlantirish agentligi** hamda **Adliya vazirligi xodimlari, 12 nafar Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining xodimlari** o'qitildi.

Bundan tashqari, **Oxford Insights** (Buyuk Britaniya) tashkiloti tomonidan **2023 yil dekbar** oyida e'lon qilingan **"Hukumatning Sun'iy intellektga tayyorlik indeksi" (Government Artificial Intelligence Readiness Index)** reytingida **193 ta** davlat orasida O'zbekiston **87 o'rin**ni egallagan. Yuqorida keltirilgan qarorga muvofiq **2030 yil**ga kelib O'zbekistonni ushbu reytingda **TOP-50** mamlakatlar qatoriga kiritish belgilangan. Hozirda mamlakat reytingini oshirish

bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, **sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi** tasdiqlandi, **sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish hamda qo'llashdagi etika qoidalari va tamoyillari** loyihasi ishlab chiqildi. Shuningdek, grafik protsessorli hisoblash quvvatlar xarid qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024 yil 14 oktyabrdagi** "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi **PQ-358-son qarori** qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan:

a) Sun'iy intellekt texnologiyalarini **2030 yilga** qadar rivojlantirish **strategiyasi hamda mazkur** strategiyani **2024-2026 yillarda** amalga oshirish bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi, soha va tarmoqlarda shakllantiriladigan "katta ma'lumotlar"** ro'yxati tasdiqlandi.

b) Sun'iy intellekt texnologiyalarini birinchi navbatda **bank-moliya, soliq va bojxona, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi** hamda **energetika sohasida** joriy etilishi belgilandi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunda, Vazirlik tomonidan "2025-2026 yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati" loyihasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi.

v) Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan sun'iy intellektni rivojlantirish uchun **2025 yil 1 yanvardan** boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligiga **5 yil** muddatga **50 mln AQSh doll.** miqdorida **foizsiz kredit ajratish belgilangan.**

g) Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli **iqtisodiyot tadqiqotlari markazi** negizida **Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi** tashkil etiladi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunda, Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 25 iyundagi 409-son qaroriga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida" qaror loyihasi ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan Markazning shtat birliklarini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini targ'ib qilish bo'yicha vazirlik, idoralar hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining raqamlashtirishga mas'ul rahbar o'rinbosarlari, raqamlashtirishga mas'ul tarkibiy bo'linma boshliqlari hamda mutaxassislari uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan **2024 yil 23 sentyabridan 11 noyabriga qadar 60 ga yaqin** tashkilotlarning **400 dan ortiq** mutaxassislari uchun taqdimotlar tashkil qilindi.

7. “Raqamli hukumat” tizimini rivojlantirish hamda davlat va raqamli xizmatlarni joriy etish:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) orqali **700 turdagi** (o’sish **123 foiz, 2023 yil 570 ta**) xizmat onlayn shaklda ko’rsatilishi yo’lga qo’yilgan. Joriy qilinayotgan barcha elektron davlat xizmatlarining to’lov jarayonlari Yagona billing tizimiga ulanadi.

Bugungi kunda mazkur portalda ro’yxatdan o’tgan foydalanuvchilar soni **10 milliondan ortgan**. Shuningdek, portal va mobil ilovasi foydalanuvchilari tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami **32 mln. marotaba** (o’sish **152 foiz, 2023 yil 21 mln.marotaba**) foydalanilgan.

Shu bilan birga, **Yagona portalning mobil ilovasida 476 ta** (o’sish **180 foiz, 2023 yil 265 ta**) elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda.

Raqamli hukumatning **bazaviy axborot tizimlarini** takomillashtirish bo’yicha ishlar amalga oshirildi:

Raqamli hukumatning Yagona identifikatsiya tizimi takomillashtirilib, foydalanuvchilar soni **11,25 mln. dan ziyodni** (o’sish **137 foiz, 2023 yil 8,2 mln. ta**) tashkil etdi.

Raqamli hukumatning ma’lumotnomalar va klassifikatorlar registriga bugungi kunga kelib **20 ta** (o’sish **143 foiz, 2023 yil 14 ta**) tashkilot tomonidan **56 ta** (o’sish **116 foiz, 2023 yil 48 ta**) klassifikatorlar kiritilgan.

“Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida servislar soni **260 taga** (o’sish **163 foiz, 2023 yil 160 ta**) yetkazildi.

Yagona idoralararo ijro intizomi **“ijro.gov.uz”** tizimining foydalanuvchilari soni **117 ming** (o’sish **117 foiz, 2023 yil 100 ming**) nafardan oshdi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish:

Shuningdek, IT xizmatlari eksport qiluvchilarni jalb qilishga qaratilgan **Zero Risk** hamda IT kompaniyalarga jahon bozoriga kirishda yordam beradigan **Local to Global** dasturlari ishga tushirildi.

Mazkur Dasturda ishtirok etuvchi korxonalariga IT-Park tavsiyanomasi asosida bo’sh turgan davlat binolari **1 yilgacha** muddatga tekin foydalanish, dastur ishtirokchilarining xodimlarni ishga olish va malakasini oshirish xarajatlari **50 foizgacha** qoplab berish hamda xalqaro ko’rgazmalarda ishtirok etish va xorijiy ekspertlarni taklif qilish uchun xarajatlarning **50 foizgacha** qismi qoplab berish ko’zda tutilgan.

O’tgan davr mobaynida **“Zero Risk”** dasturi bo’yicha bugungi kunga qadar **53 ta** arizalar kelib tushgan shundan **40 tasi** ijobiy hal etilgan, ular doirasida **1,5 ming**

dan ziyod yangi ishchi o‘rinlari yaratilmoqda hamda “**Local to Global**” dasturi doirasida **27** tadan ortiq seminarlar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” **2024 yil 14 oktyabr**dagi **PF-157-son Farmoni** doirasida quyidagi ishlar amalga oshirimoqda:

2025 yil 1 fevraldan boshlab **2030 yil 1 yanvar**ga qadar eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida **10 million AQSh dollari**dan oshgan IT-Park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarini (shu jumladan, royalti to‘lanadigan) ko‘rsatgan, O‘zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to‘g‘risida bitim tuzilmagan davlatlarning yuridik shaxslarini ushbu kalendar yil yakuniga qadar foyda solig‘idan ozod etildi;

2025 yil 1 fevraldan boshlab **2040 yil 1 yanvar**ga qadar jami daromadi tarkibida eksporti hajmi **50 foiz**dan ortiq bo‘lgan IT-Park rezidentlarining ta‘sischilari (ishtirokchilari) — O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari singari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda foyda solig‘ining

5 foiz stavkasini tatbiq etildi;

2028 yil 1 yanvardan boshlab **2040 yil 1 yanvar**ga qadar quyidagi mezonlardan biriga to‘g‘ri keladigan IT-Park rezidentlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017 yil 30 iyun**dagi «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi **PF-5099-son** nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlarini uzaytirildi va Soliq kodeksida aks ettirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

2025 yil 1 yanvardan **2026 yil 1 yanvar**ga qadar tajriba-sinov tariqasida IT-Park rezidentlariga quyidagi barcha shartlar bajarilgan hollarda korporativ bank kartalari orqali reklama xizmatlari uchun kalendar yil davomida eksport tushumlarining **10 foizi** doirasida, biroq **100 ming AQSh dollari**dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘lovlarni amalga oshirishga ruxsat etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” **2024 yil 14 oktyabr**dagi **PF-57-son Farmoni** doirasida quyidagi ishlar amalga oshirimoqda:

2025 yil 1 fevraldan boshlab **2030 yil 1 yanvar**ga qadar eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida **10 million** AQSh dollariidan oshgan IT-Park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarini

(shu jumladan, royalti to'lanadigan) ko'rsatgan, O'zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risida bitim tuzilmagan davlatlarning yuridik shaxslarini ushbu kalendar yil yakuniga qadar foyda solig'idan ozod etildi;

2025 yil 1 fevraldan boshlab **2040 yil 1 yanvar**ga qadar jami daromadi tarkibida eksporti hajmi **50 foiz**dan ortiq bo'lgan IT-Park rezidentlarining ta'sischilari (ishtirokchilari) — O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidentlari singari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda foyda solig'ining

5 foiz stavkasini tatbiq etildi;

2028 yil 1 yanvardan boshlab 2040 yil 1 yanvarga qadar quyidagi mezonlardan biriga to'g'ri keladigan IT-Park rezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017 yil 30 iyun**dagi «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi **PF-5099-son Farmonida** nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlarini uzaytirildi va Soliq kodeksida aks ettirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

O'zbekiston **2024 yilda Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida (E-Governmen Development Index – “EGDI”)** avvalgi hisobot davriga nisbatan **6 pog'onaga** ko'tarilib, dunyodagi **193 ta** davlat orasida **63-o'rinni** egalladi. Bunda, mamlakatimiz elektron hukumat sohasida rivojlanish bo'yicha **“yuqori”** guruhdan **“juda yuqori”** guruhga ko'tarilgan **17 ta** davlatlar qatoridan joy oldi va dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakat orasida **4-o'rinni** egalladi.

Pochta aloqasini rivojlantirish:

“O'zbekiston pochta” AJ tomonidan 2024 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, pochta xizmati sifatini oshirish va moliyaviy holatni mustahkamlash bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilib, biznes-rejada mo'ljallangan **450 882,1 mln.so'm** o'rniga **603 475,4 mln.so'm**lik daromad olindi (**134%**), 2023 yilning shu davrida **381 903,4 mln.so'm** daromad olingan (**158%**).

2024 yilda byudjetga **127 418,1 mln.so'm** miqdorida soliqlar to'langan, o'tgan yilning shu davrida **85 128,1 mln.so'm** soliq to'langan (**150%**).

2024 yil davomida **“Gibrid pochta” xizmati** bo'yicha **37,2 mln.dona** xat-xabarlar yetkazib berilgan, 2023 yilda **20,5 mln.dona** xat xabarlar manzilga yetkazilgan, o'sish qariyb **2,0 barobarni** tashkil etgan.

Elektron tijorat sohasida faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida, Toshkent shahridan viloyat, tuman markazlarigacha **24 soat** ichida yetkazib berish bo'yicha **"Bir qadam" xizmati** (oluvchining manziliga yetkazib berilmaydi) yo'lga qo'yildi.

Mazkur xizmat **200 dan ortiq** (o'sish **6 barobar, 2023 yil 30 ta**) pochta aloqasi ob'ektlarida yo'lga qo'yilib, **100,0 mingdan ortiq** (o'sish **12 barobar, 2023 yil 8500 ta**) jo'natmalar yetkazib berildi.

Biznes hamkorlarning (**multibrend "internet magazin"**) jo'natmalarini pochta aloqa ob'ektigacha olib borish va shu erning o'zida oluvchilarga topshirish (oluvchining manziliga yetkazib berilmaydi) xizmatlari yo'lga qo'yildi.

Hozirda barcha pochta aloqasi ob'ektlarida **"Uzum market", "Ozon", "Wildberries"** va boshqa elektron tijorat sohasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning jo'natmalarini topshirish punktlari tashkil etilib, **340,0 mingdan ortiq** jo'natmalar yetkazib berildi.

Pochta aloqasi xizmatlarini foydalanuvchilarga imkon qadar yaqinlashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, pochta aloqasi bo'limlarida ko'rsatiladigan qator xizmat turlarini aloqa bo'limlaridan tashqarida real vaqt rejimida ko'rsatish bo'yicha **"Mobil pochta" xizmati** yo'lga qo'yildi.

Mazkur xizmatni **500 tadan ortiq** pochta aloqasi xizmat ko'rsatish hududida (**pochta aloqasi bo'limlaridan tashqarida**) pochta xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalar sohasida ta'limni rivojlantirish, jumladan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm viloyatida tajriba tariqasida **"Muhammad al-Xorazmiy vorislari"** loyihasi joriy etildi.

Mazkur loyiha doirasida IT-sohasiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlar saralab olinadi, ular darsdan tashqari vaqtda birinchi bosqichda **13 ta** raqamli texnologiyalar o'quv markazlari (IT-Park filiallari)da va ikkinchi bosqichda esa **31 ta** umumta'lim maktablarda jami **4 200 nafardan ziyod** (o'sish **350 foiz, 2023 yil 1200 nafar**) **7-11-sinf o'quvchilari** saralab olinib, axborot texnologiyalari va ingliz tili bo'yicha ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi.

2025 yildan boshlab ushbu loyiha Respublikaning boshqa hududlarida ham joriy etish rejalashtirilgan, jumladan **2025-2027 yillarda** Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida joriy etiladi.

Loyihaning keyingi bosqichi sifatida **2027-2030 yillarda** Samarqand, Buxoro, Jizzax, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida joriy etish rejalashtirilgan.

Iqtisodiyotning turli sohalarida raqamlashtirishda faol ishtirok etadigan iqtidorli yoshlarni tayyorlash maqsadida **“Mirzo Ulug‘bek vorislari”** tayyorlov o‘quv kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarga **60 nafar (2023 yil 60 nafar)** talaba yoshlar saralab olinib, ular dasturlash tillari, ma‘lumotlar tahlili va ingliz tiliga o‘qitildi.

Shuningdek, Vazirlik huzuridagi **“Raqamli ta‘limni rivojlantirish markazi” DM** tomonidan doimiy ravishda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega o‘quv markazlarining reytingi shakllantirilmoqda. Reyting **“IT-Talents”** dasturi doirasida joriy qilingan **crm.digital.uz** tizimidagi ma‘lumotlar asosida shakllanadi. Reyting natijalari doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borilmoqda.

“IT-bilimlarini rivojlantirish markazi” tomonidan IT-Park rezidenti bo‘lgan xususiy o‘quv markazlarini rivojlantirish uchun **3 yilgacha** bo‘lgan muddatga va **bilgi.uz** ta‘lim platformasi yordamida yoshlarning IT yo‘nalishida o‘qishlari va malaka oshirishlari uchun **6-18 oy muddatga** maqsadli qarz ajratish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan. IT-Parkning rezidenti bo‘lgan xususiy o‘quv markazlari soni **597 taga** yetdi.

IT yo‘nalishidagi olimpiada va musobaqalarga yoshlarni tayyorlash va munosib ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xalqaro informatika olimpiadasi, Informatika fanidan Yevropa qizlar olimpiadasiga o‘quvchilar saralanib, ular uchun mahalliy trener va xorijiy ekspertlar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi. 2024 yilning 1-8 sentyabr kunlari Misrda bo‘lib o‘tgan **36-xalqaro informatika olimpiadasi** hamda **21-27 iyul kunlari** Niderlandiyada bo‘lib o‘tgan **Informatika fanidan Yevropa qizlar olimpiadasida (O‘zbekiston jamoasi 1 marta qatnashdi)** ushbu o‘quvchilar tomonidan **bronza medallari** qo‘lga kiritildi

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024 yil 1 fevraldagi PQ—51-son qaroriga 2024 yil 1 martdan boshlab** xalqaro IT-sertifikatlarga ega yoshlarning o‘qish hamda ushbu sertifikatlarni olish xarajatlarining **60 foizgacha** bo‘lgan qismini hamda **ingliz tilini bilish bo‘yicha B2** va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarning **professional** darajadagi **xalqaro IT-sertifikatlar** olish xarajatlarini **to‘liq qoplab berish** tizimi yo‘lga qo‘yildi hamda Vazirlar Mahkamasining **2024 yil 17 fevraldagi 95-son qaroriga** asosan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**)da tegishli davlat xizmati ishga tushirildi.

Hozirgi kunga qadar xalqaro IT sertifikatini olish uchun qatnashgan jami yoshlar soni **9 200 nafardan ortiq** (o'sish **191 foiz, 2023 yil 2932 nafar**) bo'lib, shundan, **3 400 nafardan ortiq** (o'sish **227,8 foiz, 2023 yil 922 nafar**) yoshlarga jami **10 mlrd. so'm dan ortiq** (o'sish **281,2 foiz, 2023 yil 1,6 mlrd**) xarajatlari qoplab berilgan. Jumladan, **2025 yil** hozirgi kunga qadar **1 400** nafardan ortiq yoshlarga jami **5,4 mlrd. so'm** (o'sish **156,2 foiz, 2023 yil 1,6 mlrd so'm**) miqdorida xarajatlar qoplab berilmoqda.

“**Bir million dasturchi**” loyahasini mantiqiy keyingi bosqichini amalga oshirish maqsadida maqsadida **uzbekcoders platformasi** orqali “**Coursera onlayn kurslarida** yoshlar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratildi;

2025 yilda 523 ming nafardan ortiq (**2024 yil 239 ming nafar**) yoshlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan **281 ming nafar** (**2024 yil 111 ming nafar**) yoshlar bitirib boshlang'ich IT-sertifikatlarni qo'lga kiritishgan. Shuningdek, **2000 nafardan ortiq** (**2024 yil 3500 ta**) yoshlar platformaning professional kurlarida ta'lim olishdi.

2024-yilning 29 noyabr kuni “**Bir million dasturchi**” loyahasining navbatdagi bosqichiga start berildi. Mazkur bosqichda yoshlar uchun **5 ta** yo'nalishda bepul o'qish imkoniyati hamda **12 mingdan ortiq** professional kurslarda imtiyozli ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi. **2025 yil** yakunida loyihada faol ishtirok etgan yoshlar, ularning o'qituvchilari va ta'lim muassasalarini rag'batlantirish amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, “**Maktab 21**” loyihasi joriy etilib, bunda **18 yosh**dan katta va IT sohasiga qiziquvchilar dasturlar ko'nikmalariga tayyorlab boriladi. O'zbekistonning ikki shahrida — **Samarqand va Toshkent shaharlarida** ushbu ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi (*Toshkent kampusi 2024 yil 2 oktyabrdan faoliyat boshladi*). Mazkur muassasalarda ta'lim olish uchun **35 000 dan ortiq** arizalar qabul qilingan. Ularning **2200 nafari** saralash intensivlarini o'tdilar. Ushbu yoshlar **C, C++, Java, Python, Go, SQL** dasturlash tillarini o'zlashtirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024 yil 1 fevraldagi PQ—51-son qaroriga** muvofiq yoshlarni mehnat bozorida IT-xizmatlar eksporti sohasida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish va nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida **subsidiya ajratish mexanizmi** yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining **2024 yil 12 fevraldagi 86-son qarori** bilan “**IT-Talents**” dasturi doirasida nodavlat ta'lim tashkilotlariga **bir martalik subsidiya ajratish** bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi.

Unga ko'ra IT-Park rezidenti bo'lgan nodavlat ta'lim tashkilotlariga bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi tashkilotga ishga joylashganda bazaviy hisoblash

miqdorining **75** **baravarigacha**, nogironligi bo'lgan
yosh bitiruvchisi bunday tashkilotga ishga joylashgan hollarda esa
105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish tizimi joriy etildi.